

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lim vazirligi**

Farg'ona Davlat Universiteti  
Tabiiyot –geografiya fakulteti  
Umumiy ekologiya va botanika kafedrası  
5420100- Biologiya ta'lim yo'nalishi  
428- guruh talabasi **Qobulova Kamola**  
**Sa'dullo qizining**

**“Papaya (Carica papaya) o'simligini Farg'ona sharoitida  
iqlimlashtirishni bioekologik xususiyatlari” mavzusidagi**

**BITIRUV-MALAKAVIY  
ISHI**

Ilmiy rahbar: b.f.n, dotsent

V.Maxmudov

Farg'ona-2013

Bitiruv malakaviy ishi Zoologiya kafedrasining 2013 yil  
«\_\_\_»\_\_\_\_\_ kungi №\_\_\_yig‘ilishida muhokama  
qilingan va himoya qilishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

M.Shermatov

**Taqrizchilar:**

Zoologiya  
kafedrası professori,b.f.d  
Hamidov G’.

FarPI q.f.d. professor  
O.Ibragimov

## MUNDARIJA

Kirish.....	
Mavzuning dolzarbligi,maqсуди va vazifalari.....	.
I bob.Adabiyotlar tahlili .....	
II bob. Farg'ona viloyatining tabiiy geografik sharoiti .....	
III bob. Tadqiqot obyekti va o'rganish metodlari.....	
IV bob. Farg'ona iqlim sharoitida papaya (Carica papaya L.)ni iqlimlashtirish bo'yicha olingan natijalar.....	
4.1. Carica papaya L. ning dorivorlik xususiyatlari.	
4.2. Carica papaya L. ning bioekologik xususiyatlari.	
4.3. Carica papaya L. ni ko'paytirish va agrotexnikasi.	
Xulosa.....	
BMI natijalari asosida tavsiyalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
Ilovalar.....	

## **Kirish**

Yer yuzidagi 500 mingdan ziyod o'simlik turlarining 350000 ga yaqinidan insonlar kundalik hayotida foydalanadi. Nabobat olamida shunday o'simlik turlari borki, ular insonlarda eng nafis tuyg'u-go'zallik hissini uyg'otadi, hush kayfiyat bag'ishlaydi va eng asosiysi inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular xonadonlarimizni , dam olish oromgohlarimizni, sihatgohlarimizni yanada manzarali ko'rinishiga xizmat qiluvchi tropik va subtropik o'simliklardir.

Ma'lumki, mashinasozlik, to'qimachilik, tikuvchilik va shu kabi boshqa sanoat korxonalarining atrof- muhitga, tirik organizmlar uchun zararli bo'lgan moddalarni chiqarish holatlari yildan - yilga ortib bormoqda. Ikkinchi tomondan, bu ishlab chiqarish korxonalarining sexlari, ish joylari issiq va sershovqin, changli bo'ladi. Bunday joylar doimiy yashil, barg va poyalarida zaharli gazlarni tutib qoluvchi, chang va shovqindan muhofaza qiluvchi o'simliklar ko'proq parvarishlashni taqozo etadi. Bu holat tabiiyki, kishi ruhiyati va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rstadi.

Tropik o'simliklar tabiatning betakror manzaralarini xona sharoitida mujassamlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'ziga xos mikroiklimni hosil qilib, havoni turli xil changlardan, kasallik qo'zg'atuvchi mikroblardan tozalaydi, namlik darajasini 50% gacha oshiradi.

Tropik va subtropik o'simliklar haqida to'plangan qimmatli ma'lumotlar ilmiy asarlar, darsliklar va qo'llanmalar yozishda hamda O'simlik havaskorlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi O'zbekistonga tropik va subtropik o'simliklar asosan, yer sharining u yoki bu qit'asidan turli yo'llar, turli maqsadlarda olib kelingan va bu yerda o'zining ikkinchi «vatani» ni topgan. hozirgi vaqtda «O'zbekistonga tropik va subtropik o'simliklar olib kelinishi

qachondan boshlangan?» - degan savolga javob berish qiyin, albatta. Lekin, O'zbekistonda «Tropik va subtropik o'simliklar introduksiyasi qanday yo'llar bilan amalga oshirilgan?» - degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. O'zbekistonda Botanika bog'larining tashkil qilinishi orqali. Bu yo'l bilan tropik va subtropik o'simliklar maqsadli, rejali va ilmiy asosda iqlimlashtirilgan o'simlik turlari gul do'konlari va boshqa vositalar yordamida keng xalq ommasiga yetkazilmoqda.

2. Joylarda davlat tasarrufidagi shahar ko'kalamzor-lashtirish va obodonlashtirish tashkilotlarining tashkil etilishi. Bu tashkilotlar faoliyati tufayli iqlimlashtirilgan noyob o'simlik turlari ko'paytirilib, ommalashtirilmoqda.

3. Mahalliy savdogarlarning savdo-sotiq maqsadida safar qilishi. Bu safarlar natijasida ko'p davlatlardan manzarali o'simlik turlari va noyob o'simliklar olib kelinmoqda.

Manbalarda qayd etilishicha, xalqimiz qadim zamonlardan oq bu o'simliklarni bilishga va o'stirishga qiziqqanlar. Asrlar osha Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch, Toshkent kabi ko'hna shaharlarda qad ko'tarib turgan yirik madrasa va boshqa binolarning ayniqsa ichki devorlaridagi chiroyda tengi yo'q bezaklar, naqshlar, chizmalar orasida, Bobokalon Alisher Navoiyning «Xamsa»siga bag'ishlab chizilgan, Z.M.Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda turli shakldagi chizilgan tasviriy (noaniq) o'simliklarni ko'ramiz. Zamonasining mashhur rassomi bo'lgan K.Behzod shohona saroylardagi «ichki boglar»da o'sib, yashnab turgan o'simliklarni ko'rgan va ulardan andoza olib, o'z tasviriy (miniatyura) san'atida namoyish qilgan bo'lsa ajab emas, degan taxminlar ham yo'q emas. Hech shubha yo'qki, o'tmishda O'zbekiston hududida xon va amirlik saroylarida yoki gul shinavandalari xonadonlarida idishlarda o'simliklar o'stirilgan. Tarixiy manbalarga asoslangan bir qancha kinofilmlarda xon taxti

atrofi va qabulxonalarda o'stirilgan palma va shunga o'xshash yirik yaproqli, ziynatbop o'simliklarni aks ettirilganligini ko'rish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning «Kitob As saydana fit-tib» (2) asarida xonadonlarda o'stiriluvchi juda ko'p o'simliklarning dorivorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, o'sha davrlarda bu o'simliklarni qanday nomlanishi, qaysi dardlarga davo bo'lishi to'g'risida so'z boradi. Aloe (sabur), papirus (bardi), arum (fild-jo'sh), asparagus (mardjo'ba), siklamen (shadjarat maryam), fikus (asaba), dratsena (ayda), plyumbago (kunnabra) kabi o'nlab o'simliklarning shifobaxshligi bayon qilinadi. Bundan tashqari Abu Ali Ibn Sino (1, 60) asarlarida ham shunday ma'lumotlar keltirilgan. Demak, ana shu vaqtlardayoq ota-bobolarimiz bu o'simliklarning dorivorlik xususiyatlaridan xabardor bo'lishgan va foydalanishgan. Shuning uchun ham bu o'simliklarni uylarida saqlab ko'paytirishgan, degan fikrga kelish mumkin.

Mahalliy aholining o'simliklarga bo'lgan qiziqishi tufayli, avval chet ellardan turli manzarali, sersoya daraxt va butalar olib kelingan. Manzarali tropik va subtropik daraxtlarning dastlabki nusxalari qadimiy Samarqand, Buxoro, Termiz, Qo'qon kabi shaharlarda introduksiya qilinganligini isbotlovchi ilmiy dalillarni keltirish mumkin. Mahalliy xalq tabiiy dorivor xom-ashyo sifatida ayrim yovvoyi o'simliklarni idishlarga ekib, yoki osib qo'yib saqlaganligi ham ko'pchilikka ma'lum.

Hech shubhasiz, o'zbek xalqi juda qadimdan mahalliy o'simliklar bilan bir qatorda «kelgindi» (boshqa davlat) o'simliklarni ham o'stirishga xarakat qilganlar. Jumladan, Z.M. Boburning «Boburnomasi» da tabiatda o'sgan, bog'larda va hovlilarda o'stirilayotgan mevali hamda ziynatli o'simliklar haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan.

Turli issiqxonalarda, xonadonlarda va sihatgohlarda tropik o'simliklarni parvarishlash, xorijiy davlatlar florasi bilan tanishish imkoniyatini

beradi. Shuningdek ular insonni dunyoqarashini shakllantirishda, uning turli xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng chet ellarga chiqish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Shu munosabat bilan o'simlik shinavandalarining sa'y harakatlari tufayli xorijdan respublikamizga kirib kelayotgan o'simliklarning soni ham orta boshladi. Bular orasida respublikamizdagi eng yirik issiqxona va oranjereyalarning kolleksiyalariga kirmagan juda ko'p turlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, vatanimizning har bir viloyatlarida ham bunday iqlimlashtirilgan o'simlik turlarini uchratishimiz mumkin. Bunday o'simliklarni turli xususiyatlarini o'rganish, introduksiya qilish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, Farg'ona vodiysida aholi tomonidan turli yo'llar bilan olib kelingan, uzoq vaqtlar mobaynida parvarishlanib, o'stirilayotgan tropik va subtropik o'simliklarni ilmiy asosda o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan ko'kalamzorlashtirish va xonalarni bezatishdan tashqari keng ommani, shu jumladan maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalarini boshqa davlatlar florasiga bilan tanishtirishda keng foydalaniladi. Shuningdek atmosfera havosini tozalashda, xonalarda mikroiklim hosil qilishda, namlikning bir me'yorda bo'lishini ta'minlashda, turli xastaliklarni davolashda ham qo'llaniladi. Olib borilayotgan tadqiqotlar, tajribalar tropik va subtropik mintaqalar florasiga xos o'simliklarning Farg'ona vodiysida moslasha olganligini va shu asosda mahalliy florani yangi o'simlik turlari hisobiga boyitish mumkinligi ko'rsatmoqda. Tub yerlik aholining asosan tijorat, ziyorat va sayohat maqsadida chet ellarga chiqib kelishi natijasida Farg'ona vodiysiga foydali, dorivor, sanoatbop o'simliklar bilan bir qatorda manzarali, estetik jihatdan ahamiyatli o'simliklar ham olib kelingan. Shu o'rinda tropik va subtropik o'simliklar introduktsiyasida ayniqsa mahalliy aholining roli katta bo'lganligini ta'kidlab

o'tish joiz. Namangan, Andijon, Fargona va Margilon, Qo'qon shaharlarida hozirgi vaqtda ham rejasiz introduksiya jarayoni davom etmoqda.

Introduksiya qilingan (moslashtirilgan) turlar eng muhim (asosan, morfologik) belgilariga ko'ra turli darajadagi sistematik birliklarga kiradi. Tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida 3 bo'lim, 5 sinf, 45 qabila, 70 oila va 224 turkumga mansub 454 tur introduksiya qilinganligi ko'rsatdi .N.I.Vavilov (13), P.M.Jukovskiy (31), N. A. Bazilevskaya (5) larning ilmiy asarlaridan ma'lumki, madaniy o'simliklar singari xushmanzara o'simliklar ham yer yuzining alohida hududlaridan kelib chiqqan. Introduksiya kuzatishlar har bir turning o'z areali doirasidan chiqib, yangi muhit sharoitlariga moslashuvi ularning hayotiy shakllari hamda chiqib kelishi hududlariga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. O'simliklarning muvaffaqiyatli introduksiyasida turning ekologik potentsiali, ya'ni abiotik va edafik (tuproq tarkibi) omillarga bo'lgan munosabati muhim hisoblanadi

O'simliklarning introduksiya qiymati quyidagi 4 ta asosiy ko'rsatkichlarga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

-urug'idan ko'payishga moyilligi:

-tabiiy (vegetativ) ko'payishga moyilligi:

-haroratni qisqa muddatli pasayishiga munosabati:

-quyosh radiatsiyasiga munosabati.

Tropik va subtropik o'simliklar introduksiyasida ularning hayotiy shakllari ham muhim o'rin tutadi . Masalan, *Acca sellowiana*, *Artocarpus heterophylla*, *Phoenix canariensis*, *Ph.dactylifera*, *Psidium littorale*, *P.guajava*, **Carica papaya**, *Citrus limon*, *Euphorbia pulcherrima*, *Crassula arborescens*, asosan *Ficus* turlari va boshqa o'simliklar daraxt hayotiy shaklga ega o'simliklar

bo'lib, ular 40 tur (23,2%)ni, *Abutilon hybridum*, *Acalypha wilksiana*, *Duranta plumieri*, *Hibiscus rosa-sinensis*, *Nerium oleander*, *Lantana camara* ga o'xshash butalar 30 tur (17,4%)ni, *Gynura sarmentosa*, *Aucuba japonica*, *Beloperone guttata*, *Crassula falcata*, *Pelargonium capitatum*, *P. zonale*, *Plectranthus ortendachlii*, *Rivina humilis* singari yarim butalar 17 tur (9,2%)ni tashkil etadi. Lianalar (*Tetrastigma voinierianum*, *Scindapsus aureus*, *Philodendron erubescens*, *Ph. selloum*, *Fatshedera litzei*, *Monstera deliciosa*) 9 turdan (5,2%) iborat bo'lib, qolgan 76 tur (44,1%) asosan ko'p yillik o'tlar bo'lib, ular ichida piyozchali, tuganakli yoki ildizpoyali o'tlar ham uchraydi.

Urug'idan ko'payishga moyilligiga ko'ra kuzatishlar, *Beloperone guttata*, *Crassula falcata*, *Pelargonium capitatum*, *P.zonale*, *Plectranthus ortendachlii*, *Rivina humilis*, ***Carica papaya***, *Citrus limon*, *Coffea arabica*, *Eriobotrya japonica*, *Punica granatum* larning issiqlik, yoruqlik va namlik yetarli bo'lganda bir me'yorda gullab, mevalashini ko'rsatdi.

Haroratni qisqa muddatli pasayishiga munosabatini o'rganishlar asosida o'simliklarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Sovuqqa (haroratni qisqa muddatli pasayishi) chidamsiz o'simliklar. Bu guruhga +4-5 haroratda butunlay nobud bo'ladigan, qayta tiklanmaydigan *Alocasia odora*, *Achimenes longioflora*, *Acalypha wilksiana*, *Aeschynanthus hybrida*, *Artocarpus heterophyllus*, *Begonia* turlari, *Bilbergia amoena*, *Chamerops hymilis*, *Coleus blumei*, *Cyanotis kewensis*, *Iresine herbstii*, *Pelargonium zonale*, *Solanum capsicastrum*, *Campanula isophylla* va aksariyat palmalarni kiritish mumkin.

2. Sovuqqa chidamli o'simliklar guruhiga +4-5 va undan ham past haroratga chidaydigan, ya'ni zarar ko'rmaydigan quyidagi o'simliklarni kiritish mumkin: *Agapanthus africanus*, *Asparagus densiflorus*, *Asparagus meyerii*, *A. setaceus*, *Aucuba japonica*, *Bougainvillea glabra*, *B. spectabilis*, *Chlorophytum comosum*,

*Clivia miniata*, *Crinum moorei*, *Cyperus alternifolius*, *Eriobotrya japonica*, *Eucharis grandiflora*, *Nerium oleander*, *Passiflora coerulea*, *Pilea microphylla*, *Sansevieria trifasciata*, *Scindapsus pictus* va b.

3. Sovuqqa ko'nikuvchan o'simliklarga yer ustki qismlari, mayda shox-shabballari, barglari va yosh novdalari sovuqdan zarar ko'rsada, dastlabki iliq haroratdayoq qayta tiklanadigan turlar kiradi. Bunday o'simliklarga *Abutilon hybridum*, *Acca sellowiana*, *Achimenes hybrida*, *Acokanthera oppositifolia*, *Aechmea comata*, *Aglaonema commutatum*, *Allamanda cathartica*, *Aristolochia elegans*, *Bromelia agavifolia*, *Campanula isophylla*, **Carica papaya**, *Ceropegia linearis*, *Chamaedorea elegans* kabilarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, tropik va subtropik o'simliklarni introduktsiyasida yorug'lik (quyosh radiatsiyasi) asosiy omil sanaladi. Aksariyat o'simliklarda uchun boshqa omillarga qaraganda, yoruglik omiliga nisbatan talab ancha kuchli bo'ladi. Ba'zi tropik va subtropik o'simliklar soya-salqinda, ba'zilari esa olako'lanka joylarda normal o'sadi. Shunga ko'ra ularni 3 guruhga ajratiladi;

1. Yorug'sevar o'simliklar. Bu guruhga intensiv yoruglik (quyosh nurining tik tushganda) muhitida juda yaxshi o'sadigan (76 tur, 44,1%) o'simliklar kiradi.

2. Soyasevar (nimsoya) o'simliklar Bu guruhga kiruvchi o'simliklar nimsoya, olako'lankada o'sadigan (69 tur, 40,1%) o'simliklardir. Ular uchun tik quyosh nuri ham, kuchli soya ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Soyaga chidamli o'simliklar. Bu guruhga kiruvchi o'simliklar (27 tur, 15,6%)ning quyosh nurida 1-2 soat turib qolishi ularning barglarini och tusga kirishiga (barg xujayralarida xlorofill donachalarining kamayishiga), so'ngra har-xil dog'lar qosil bo'lishiga olib keladi. Kuchli yoruqlik ta'sirida bu o'simliklarning barglari zararlanadi, ya'ni kuyib qoladi. Shuning uchun bu xil o'simliklarni quyosh nuridan muhofaza qilish zarur.

Farg'ona vodiysidagi tropik va subtropik o'simliklarning biomorfologik tavsiflari, manzaralilik xususiyatlari va hayotiy shakllari I.G.Serebryakov sxemasi, E.S.Smirnova ko'rsatmalari; botanika-geografik provintsiyalari S. M. Razu-movskiy sxemasi, qiyosiy morfologiyasi va geografiyasi M.G.Popov , fenologiyasi I.N.Beydeman , introduksiya qiymati N.M.Karmishina metodlari asosida o'rganilgan.Turlarning morfologiyasi, manzaralilik xususiyatlari, ko'payishi va ahamiyatli tomonlarini aniqlashda G.Valter , D.F.Yuximchuk , N.Kotelova, M.Grechko, N.A.Kapranova , S.E.Korovin, V.N.Chekanova , B.Chastmir larning asarlaridan, «Atlaso' po opisatelnoy morfologii» (111,112, 113,114), «Dekorativno'e rasteniya» (1981), «Tropicheskie i subtropicheskie rasteniya» (1961, 1976) nomli asarlardan, shifobaxshlik xususiyatlarini aniqlashda A.D.Turova va E.N.Sapojnikova (106), D.A.Muraveva, A.F.Gammerman (62), I.E.Akopov (3) va M.M.Pavlov (68) kabi olimlarning asarlaridan manba sifatida foydalanilgan.

## **1.Mavzuning dolzarbligi.**

Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida 1997 -yil qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning eng asosiy vazifalaridan biri bu jaxon standartiga to'liq javob beradigan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash va shu orqali O'zbekistonning iqtisodiyotini,qishloq xo'jalik fanlarini dunyo miqyosida eng yuqori o'rinlarga olib chiqishdir.Mustaqilligimizning dastlabki 21 yilidanoq O'zbekiston keskin rivojlanish bosqichiga kirmoqda.Fanning turli sohalarida fundamental tadqiqotlar o'tkazish uchun katta imkoniyatlar vujudga keldi.Ayniqsa qimmatli xom- ashyo o'simliklarini intoduksiya qilish, aholining tabiiy dori- darmon mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish eng muhim dolzarb masalalardan biridir. Introduksiya qilingan o'simliklar ichida Aloe L., Alocasia G. Don., Agave L., Kalanchoe Adans., Opuntia L., Ornithogallum L., Passiflora L., Selenecereus L.,**Carica papaya L.**, Citrus limon (L.) Burrm.

f., kabi o'zlarining shifobaxshlik xususiyatlari bilan insonlar hayotida muhim o'rinni egallovchi turlar bor. Ular o'zlarining bu xususiyatlari bilan xalq xo'jaligida, tibbiyotda va sanoatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi o'simliklar orasidan hozirgi kunda Carica papaya o'zining xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Hozirda aholi sonini ortib borishi, ekologik muhitni o'zgarishlari natijasida xilma xil kasalliklarni paydo bo'lishi yangi dori mahsulotlarini izlab topishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qimmatli dorivor - dekorativ o'simlik bo'lgan papaya O'zbekistonda jumladan, Farg'ona viloyatida introduksiya qilish muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, mavzuning dolzarbligi quyidagilarda ham namoyon bo'ladi.

- Shaxar va qishloqlarni obodonlashtirish aholini madaniy saviyasini oshirish, ularni yashay-otgan joylarini ekologik muxitini yaxshilashda ko'kalamzorlashtirishni ahamiyati nixoyatda kat-tadir. Ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladigan o'simlik turlari assortimentini, shuningdek shifobaxsh o'simliklarning turlarini ko'paytirish, maxalliy sharoitga chidamli bo'lgan mahalliy flora turlarini madaniylashtirish, iqlimlashtirish muxim ahamiyatga ega.

Chunki O'zbekiston florasida ko'plab manzarali, shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan o'simliklar mavjud .

- Ularni muhofaza qilish hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.
- Farg'ona shaxrini to'liq rekonstruksiya qilish bo'yicha prezidentimiz farmoni e'lon qilindi, xu-kumatimiz tomonidan bu sohaga katta mablag' ajratildi.
- Yuqorida aytib o'tilgan va bayon qilingan ma'lumotlarni hisobga olib, Farg'ona shahri xududini ko'kalamzorlashtirish va gulzorlar-ga, bog'u-bo'stonlarga aylantirish, shifobaxsh o'simliklardan samarali foydalanish

borasida olib borilgan izlanishlar, ularning samaralari, hozirgi holati, manzarali daraxt va butalar-ning tur tarkibi, ular orasida istiqbolli turlarini aniqlash va tavsiya qilish.

- Shuningdek, o'sha turkum, tur aniqlagichini yaratish, noyob turlarini aniqlab, ularni muhofaza qilish haqidagi ma'lumotlar berish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblaymiz. .

## **2.Muammoning o'rganishlik darajasi.**

Papaya ( *Carica papaya L.*)ni Hindiston va Janubiy Amerika davlatlarida qimmatli dorivor, oziq –ovqat ekini sifatida keng foydalaniladi. O'zbekistonda esa o'tgan asrni 80-yillarida qiziquvchan tabiatshunoslar tomonidan O'zbekistonni Surxondaryo viloyatida tajribadan o'tkazilgandan so'ng Toshkent shahrida,2000-2005 yillardan boshlab, Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida va keyin Andijon hamda Namangan viloyatlarida alohida xonadonlarda ekib ko'rildi.Lekin papayani ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish b'yicha ma'lumotlar yetarli emas.

## **3.Bitiruv malakaviy ishini ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.**

Bajarilgan bitiruv malakaviy ishi “Umumiy ekologiya va botanika” kafedrasining “ Farg'ona vodiysining xom- ashyo o'simliklarini tadqiq qilish” mavzusini

b)bandi : “Farg'ona viloyatida noan'anaviy o'simliklarni introduksiya qilishning bioekologik xususiyatlarini o'rganish” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan.

## **4.Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.**

Qimmatli dorivor va oziq - ovqat o'simligi papaya ( Carica papaya L.) ni Farg'ona viloyati sharoitida introduksiya qilish va uni bioekologik xususiyatlarini o'rganish va ishlab chiqarishga tavsiya berishdan iborat.

## **5. Bitiruv malakaviy ishining vazifalari**

- Papaya (Carica papaya L.) ni dorivorlik va introduksiya qilish bo'yicha adabiyotlar tahlilini qilish;

-Papayani Farg'ona viloyatida ekib o'stirish bo'yicha bioekologik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;

-Papayani Farg'ona viloyatida o'stirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

## **6. Tadqiqot obyekti va predmeti**

Tadqiqot obyekti - qimmatli dorivor va oziq-ovqat o'simligi- papaya (Carica papaya L.)

## **7.Tadqiqot metodlari:**

dala,morfoekologik va tahlil qilish metodlari.

## **8. Bitiruv malakaviy ish himoyasiga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

- Farg'ona viloyati sharoitida yopiq maydonlarda papayani iqlimlashtirishni o'ziga xos xususiyatlari borligi aniqlandi.

## **9. Bitiruv malakaviy ishini ilmiy yangiligi.**

Birinchi marta papaya (*Carica papaya* L.)ni Farg'ona viloyatida introduksiya qilishni bioekologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlar olindi.

### **10. Bitiruv malakaviy ishi natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Xom-ashyo o'simliklarni introduksiya qilish orqali ularni assortimentini ko'paytirish, qimmatli dorivor o'simlik bo'lgan papayani Farg'ona sharoitida iqlimlashtirishni bioekologik xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Odamni immun sistemasini mustahkamlaydigan, immunitetni oshiradiga, rak hujayralarini yo'qotadigan, skelet sistemasini mustahkamlaydigan dori olinadigan papaya o'simligini Farg'ona viloyatida o'stirish mumkinligi isbotlandi.

### **11. Bitiruv malakaviy ishi natijalarini joriy qilinishi.**

Bitiruv malakaviy ishi natijalari Farg'ona viloyatidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari biologiya va ekologiya fanlarini o'qitishda, biologiya bo'yicha fan to'garaklarida va Uchko'prik tumani "Mehrigiyo" tabiiy dorilar ishlab chiqarish birlashmasiga foydalanish uchun tavsiya qilindi.

### **12. Bitiruv malakaviy ishini sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi)**

Mazkur Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalari Farg'ona davlat universiteti professor o'qituvchilari va talabalarining 2013- yil mart oyida o'tkazilgan an'anaviy ilmiy- amaliy anjumanlarida, umumiy ekologiya va botanika kafedrasi yig'ilishida, kafedra qoshidagi "Yosh ekolog" fan to'garagi yig'ilishida eshitildi va muhokama qilindi.

### **13. Bitiruv malakaviy ishi natijalarini e'lon qilinishi.**

Bitiruv malakaviy ishi natijalari bo'yicha maqola tezisi tayyorlandi va ilmiy anjumanga yuborildi, hamda "Farg'ona haqiqati" gazetasida maqola chop etildi.

#### **14. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.**

Bitiruv malakaviy ishi 80 betdan iborat bo'lib, kirish, 4 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Hech shubha yo'qki, o'tmishda O'zbekiston hududida xon va amirlik saroylarida yoki gul shinavandalari xonadonlarida idishlarda o'simliklar o'stirilgan. Tarixiy manbalarga asoslangan bir qancha kinofilmlarda xon taxti atrofi va qabulxonalarda o'stirilgan palma va shunga o'xshash yirik yaproqli, ziynatbop o'simliklarni aks ettirilganligini ko'rish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning «Kitob As saydana fit-tib» (2) asarida xonadonlarda o'stiriluvchi juda ko'p o'simliklarning dorivorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, o'sha davrlarda bu o'simliklarni qanday nomlanishi, qaysi dardlarga davo bo'lishi to'g'risida so'z boradi. Aloe (sabur), papirus (bardi), arum (fild-jo'sh), asparagus (mardjo'ba), siklamen (shadjarat maryam), fikus (asaba), dratsena (ayda), plyumbago (kunnabra) kabi o'nlab o'simliklarning shifobaxshligi bayon qilinadi. Bundan tashqari Abu Ali Ibn Sino (1, 60) asarlarida ham shunday ma'lumotlar keltirilgan. Demak, ana shu vaqtlardayoq ota-bobolarimiz bu o'simliklarning dorivorlik xususiyatlaridan xabardor bo'lishgan va foydalanishgan. SHuning uchun ham bu o'simliklarni uylarida saqlab ko'paytirishgan, degan fikrga kelish mumkin.

1885 yilda Toshkent shahrining hozirgi O‘zbekiston ko‘chasi 32-uyda yashagan Sirdaryo harbiy gubernatorining yordamchisi P.I.Xomutov 300ga yaqin ekzotik o‘simliklar kolleksiyasini to‘plagan (45). 1920 yilda esa uning kolleksiyasi Turkiston Botanika bog‘iga aylantirilgan. Oradan 4 yil o‘tgach ya’ni 1924 yilda SAGU (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) ixtiyoriga o‘tgan va u yerga Nikita Botanika bog‘idan 200 tupga yaqin o‘simlik olib kelingan (28). 1947 yilda Botanika bog‘i yangi joyga ko‘chib o‘tishi munosabati bilan, uning kolleksiyasi Amerika, Afrika, Indoneziya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlardan keltirilgan o‘simliklar hisobiga boyidi. 1958 yilda K.Kravchenko va P.K.Ozolinlar O‘ZR FA «Botanika bog‘i» oranjereyasida tropik va subtropik o‘simliklar kolleksiyasi 57 oila, 137 turkumga mansub 240 tur va 17 tur xili dan iboratligini aniqlashgan. O‘zbekistonda O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stirilayotgan 85 oila, 225 turkumga mansub 850 turni oranjereya (issiqxona) sharoitida N.M.Karmishina (1988) birinchi marta ilmiy asosda o‘rgangan. Hozirgi vaqtda akademik O‘zR FA «Botanika» IICHM ning F.N.Rusanov nomidagi Botanika bog‘i oranjereyasida 1000 ga yaqin tropik va subtropik o‘simlik turlari kolleksiyasi mavjud.

halqimiz gullarga qanchalik qiziqishiga qaramay, O‘zbekistonda F.N. Rusanov (82, 83), P.K. Ozolin, N.M. Karmishina (66). N.F. Zinoveva (35, 36, 37), A.K. Kiyatkin, N.F. Zinoveva, V.P Pechenitsin (51). L.K. Kravchenko (58)larning ilmiy va ilmiy-ommabop asarlariga o‘xshash asarlar davlat tilida yaratilmadi. Tropik va subtropik o‘simliklar haqida o‘zbek tilida I.T.Remiskevichning «Gulchilik havaskorlariga maslahatlar» (81), Z.Faxriddinovning «Gul-uyning ko‘rki» (100), N.F.Zinovevaning «YAshil hazinalar» (34) kabi ommabop asarlari nashr ettirildi, xolos. Rossiyada sanoat gulchiligining rivojlanishiga yana F.I.Zorin, V.M.Borovikov, S.A.Zagayniy (40), I.E.Karneev (47) kabi olimlar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan. G.T.Solokova (94), O.M.Poletiko, A.P.Mishenkova (71) kabi olimlar ochiq yerda manzarali o‘simliklarni o‘rganish bilan bir qatorda yopiq erlar

(issiqxona va oranjereya) dagi o'simliklar ustida ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Oranjereya va xonalarda o'stirilayotgan tropik va subtropik mintaqada o'simliklari ustida I.E.Karneev (47) qirq yildan ortiq ilmiy-amaliy ishlar olib boradi. Olib borgan ilmiy izlanishlari asosida bu o'simliklarning ekologik va geografik tarqalishi jihatidan 4 ta jug'rofik zonalarga bo'ladi. YOpiq joylardagi o'simliklarni 8 ta tipga ajratdi. Muallifning xona o'simliklari sohasidagi yangiliklaridan yana biri mavjud va ma'lum turlarni 102 ta oilaga ajratib, ularning qisqa botanik tasnifi, ko'paytirish usullarini bayon qildi.

Tropik va subtropik o'simliklar haqidagi asosiy fundamental ma'lumotlar yirik shaharlarda tashkil etilgan Botanika bog'larida to'plangan. Moskvadagi Botanika bog'ida chet el o'simliklarining 4500 ga yaqin turi to'plangan (104). Christian Grunert (130). Germaniyada manzarali bog'dorchilik va gulchilikka bag'ishlangan o'zining ilmiy izlanishlarini nemis tilida e'lon qiladi.

Qozog'iston Respublikasi FA «Botanika bog'i» ma'lumotnomasi (101) ga ko'ra, bu yerda 2000 ga yaqin tropik va subtropik o'simliklar kolleksiyasi saqlanadi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino "O'zingiz yashayotgan yerda o'sayotgan giyohlar eng birinchi davodir" deb ta'kidlagan edi. Haqiqatdan ham shifobaxsh o'simliklarni asrash, ulardan oqilona foydalanish, ko'paytirish, bunday o'simlik turlarini introduksiya qilish, kolleksiyalarini yaratish hozirgi zamonning eng dolzarb, muhim masalalaridan biridir. Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytib o'tish lozimki, hozirda introduksiya qilingan o'simliklar orasida Caricaceae oilasiga mansub Carica papaya L. o'zining shifobaxshlik xususiyati bilan keng ommani o'ziga jalb qilgan. Abdurahmon Sobirovning bergan ma'lumotlariga qaraganda, bu daraxt turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan, Kubada – "Fruta de Bomba", Kosta Rikada – "Salomatlikni saqlovchi daraxt", Floridada – "negrityan sovuni"

daraxti, Xindistonda –“Hindistonning oltin daraxti”, Karib dengizi orollarida - “ababai” shular jumlasidandir. (“Fermer va tomorqachi gazetasi”).

Papayya tanasi palmaga o’xshash, o’simlik poyasining yuqorisida 12-16 ta katta-katta parraksimon bargidan iborat to’pbarggul joylashgan. U juda tez o’sib, bir yilda 6 m.gacha yetishi mumkin. Mevasining og’irligi 2-3 kg.ga yetishi mumkin. Yashash muddati 20 va undan ortiq yil bo’lib, uni 3-4 yilgacha yetishtirish maqsadga muvofiqdir.

Papayyaning shifobaxshlik xususiyatlari haqida o’zbek adiblaridan A.Qorayev (“Qovun daraxt haqida eshitganmisiz”), M.Ro’ziyev (“Papayya mo’jizasi”), A.Sobirov (“O’zbekistonda vatan topayotgan mevali daraxtlar”), R.Abdullayev (“Papayya - tabiat tuhfasini”) kabilar turli ilmiy maqolalar yozganlar. Ular papayyaning tibbiyot sohalaridagi ya’ni travmatologiya, ortopediya, xirurgiya, ginekologiya, nevrologiya, oftalmologiya, stomatologiya, terapiya, diyetologiya, dermatologiya, gematologiya, gelmintologiya, onkologiyalardagi ahamiyatini o’z maqolalarida yaqqol namoyon etganlar. Bahodir Ziyodqo’ziyevning bergan ma’lumotlariga qaraganda, papaya bargidan, mevasidan papaya choylari, papaya asali, papaya yog’i keng miqyosda tayyorlanmoqda va bular yordamida turli kasalliklar davolanmoqda. (“Obbo tinib-tinchimaganlar-ey”)

Hindistonlik olimlardan Swati Patil, Supritha Shetty, Rama Bhide and Shridhar Narayanan hamkorligida papayaga bag’ishlab yozilgan kitobda esa (“Evaluation of platelet augmentation activity of Carica papaya leaf aqueous extract in rats” 1985 y.) papayyaning vatani, uning kelib chiqish markazlari, o’sish va rivojlanish fazalari, gullash va mevalash bosqichlari, bargi, ildizi va mevasining dorivorlik xususiyatlari va tibbiyotda qo’llanilishi, turli ekstraktlar tayyorlash prinsiplari, ko’payish usullari kabi xususiyatlari atroflicha yoritib berilgan. Xuddi shunday ma’lumotlar Urszula Dudziakning “Papaya” nomli kitobida ham

berilgan. Bundan tashqari bu asarda papayaning yiliga jahon bo'yicha yetishtirish miqdori, eksport va import hajmlari keltirilgan. (1976 y)

A. Duke "REFERENCED QUOTES ON PAPAYA" nomli asarida papayaning ko'paytirish usullari, ularning agrotexnikasi, rivojlanish sikli tushuntirilgan. Papaya ustida o'tkazilgan tajribalar, ilmiy - amaliy ishlar ko'rsatilgan.

**2 bob.** Farg'ona vodiysidagi florani introduksiya qilingan o'simliklar bilan boyitishda albatta, vodiyning iqlimi, relyefi va tabiiy sharoitlari muhim o'rin tutadi.

Farg'ona vodiysi qadimdan nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyoning dehqonchilik va ziroatchilik madaniyati yuksak rivojlangan hududi hisoblanadi. Farg'ona vodiysi L.N. Babushkin, N.A. Kogaylarning geografik tasnifiga ko'ra Turon provinsiyasining tog'oldi- tog'lik provinsiyachasiga kiruvchi Farg'ona hududini o'z ichiga oladi.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng sharqida, Tyanshan va Oloy tog' tizmalari orasida joylashgan bo'lib, atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Uni janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq, shimoldan Chotqol, shimoli - g'arbdan Qurama va Qoramozor tog' tizmalari, g'arbdan esa Mo'g'ultog' o'rab turadi. Ma'muriy jihatdan Farg'ona vodiysida O'zbekistonning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari, Qirg'izistondan O'sh viloyatining bir qismi hamda Tojikistonning Xo'jand viloyatining bir qismi joylashgan. Farg'ona vodiysi Farg'ona tabiiy geografik okrugi sifatida olinib, shartli ravishda vodiyning O'zbekistonga tegishli hududlari doirasida tadqiqotlar olib boriladi.

Farg'ona vodiysida yer qobig'ining murakkab geomorfologik tuzilishi, iqlimidagi farqi, gidrogeologik sharoitlari, muttasil davom etayotgan

dehqonchilikning ta'siri tuproq qoplami va tarkibining xilma -xil bo'lishiga olib kelgan. Asosan allyuvial- o'tloq, och yoki tipik bo'z, botqoq tuproqlar ko'p uchraydi.

Farg'ona vodiysining iqlimi quruq, davomli, yozi issiq, qishi mo'tadil. O'zbekiston gidrometeorologiya va ob-havoni kuzatish markazi Farg'ona vodiysi bo'limining bergan ma'lumotiga ko'ra, o'rtacha yillik harorat +12 - +13,5° C, eng issiq oy (iyul)ning harorati +30 - +36°C, eng sovuq oy (yanvar)ning harorati +3°C ni tashkil etadi. Absolyut maksimum harorat +40 - +42° C, absolyut minimal harorat -18 – 20°C.

Relyefning g'arbdan sharqqa balandlashib borishi sababli, yog'in miqdori va havoning nisbiy namligi bir xilda taqsimlanmaydi. O'rtacha yillik havoning nisbiy namligi 39 %, eng qurg'oqchilik oyida (avgust) 32 % bo'ladi. Vodiyning g'arbida (Qo'qon) yillik yog'in 98 mm, sharqiy qismida (Andijon) 226 mm ni tashkil etadi. Quyoshli kunlarning ancha davom etishi (yil davomida 3000 soat ), yozning quruq va issiqligi, qishning sovuqligi, shuningdek, gidrometrik me'yorlarni bir- biridan farq qilishi kabi omillar tabiiy o'simliklarga qaraganda tropic va subtropik mintaqalarga xos o'simliklarga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi iqlim sharoitlarni hisobga olib, bugungi kunda Farg'ona vodiysida Carica papaya o'simligi ekib o'stirilmoqda.

**3-bob.** Tadqiqot obyekti bo'lib shifobaxsh o'simlik Carica Papaya hisoblanadi va u kuzatish, tajriba, gerbariy tayyorlash kabi usullar yordamida o'rganildi.

**4-bob. Tajriba o'tkaziladigan joyning tuproq va iqlim sharoiti, kuzatish usullari.**

Ushbu tajriba 2011- yili Farg'ona viloyati Qo'qon shahri Uchko'prik tumanida joylashgan "Mehrigiyo" firmasida olib borildi. Tajriba o'tkazilgan

maydon xloridli-sulfatli sho'rlangan, sizot suvlari 1,5-2,0 metr chuqurda joylashgan, o'tloqi-soz tuproq. Gumus, azot, fosfor va kaliyning xarakatchan shakli bilan kam ta'minlangan.

Dala tajribasi o'tkazilgan xudud iqlim sharoitiga ko'ra Qo'qon agroiqlimiy tumaniga kiradi. Yuqori issiqlik manbaiga ega. Xavoning foydali issiqlik yig'indisi (100 S dan yuqori) 4400-4700 S atrofida bo'lib, havoning absolyut issiq xarorati 40-440S gacha, absolyut sovuq xarorati -14-190S gacha bo'ladi. Issiq kunlar 218 kun va undan ko'proq davom etadi.

Xududning yana bir xususiyatlaridan biri kuchli chang to'zonli shamol bo'lishidir. Bunday chang to'zonli shamollar bir yilda 60 va undan ko'p kunni tashkil etadi. (Nauchno obosnovannaya sistema zemledeliya v Ferganskoy oblasti, 1988).

Farg'ona vodiysining xamma tomoni (g'arbdagi qisqa masofadan tashqari) baland tog'lar bilan o'ralganligi sababli yilning xar bir kunida xavoning xarorati birdan o'zgaradigan quruq va issiq iqlimni xarakterlaydi.

Farg'ona meterologik stantsiyasining ko'p yillik ma'lumotlariga ko'ra bir yilda o'rtacha 185,4 mm yomg'ir yoqadi. Lekin 2010- yili yomg'ir miqdori nisbatan kam bo'ldi. Shuningdek xavo temperaturasi 2009-2010 yili boshqa yillarga nisbatan yuqori bo'ldi.. May, iyun, iyul oylaridagi xavo xaroratini yuqoriligi papayyalarning ertaroq gullashiga sabab bo'ldi. Tajriba o'tkazilgan hudud qadimdan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarga ega ekanligi, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tuproqlardan ajralib turadi. Tog'oldi nishab tekisligidagi bu tuproqlar, suv rejimi jixatidan xam, kimyoviy tarkibi bo'yicha xam boshqa joylardagidan farq qiladigan yer osti suvlarining sirqishi tufayli xosil bo'lgan.

Tog'lardan uzoqlashgan sari nishablar yassilasha borib, mayda zarrali tuproqqa aylanib boradi. Bu esa yer osti suvlarining oqimini susaytirib, ularni

pastdan yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Gumusli qatlamining yuqori qismida serxok, arzikli yoki sho'xli qatlamlar paydo bo'ladi.

Tog'lardan uzoqlashgan sari yuqoridan kelayotgan minerallashtiruvchi suvlar, sug'orish suvlari va tuproqdagi suvlarning bug'lanishi natijasida xar xil darajada sho'rlangan tuproqlar vujudga keladi. Asosan bunday maydonlarda tuproqlar sulfat va xlor ionlari bilan sho'rlangan bo'ladi.

Markaziy Osiyoning sug'oriladigan yerlarida kelib chiqishi bilan bir-biriga yaqin bo'lgan bunday tuproqlar katta maydonni tashkil etadi. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning tarkibida gumus keng miqyosda (2 % gacha) o'zgaradi, xaydov qatlamida uning miqdori yuqori. Pastki qatlamida karbonatli tuzlar to'planishidan sho'x, karbonatli-gipsli tuzlarning yig'ilishidan esa arzikli tuproqlar xosil bo'ladi. Sho'xli tuproq ham, sho'xsiz tuproq ham azot va fosforga boy, ammo barcha gidramorf tuproqlarda bo'lgani kabi, azot va fosforning o'simliklar yaxshi foydalana oladigan shakldagisi kam miqdorda.

Ilmiy tadqiqot o'tkazilgan, qadimdan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra 0-30 sm gacha bo'lgan qatlami yengil, 30-60 sm qatlami esa o'rta mexanik tarkibli. Bundan tashqari uning yuqori karbonatligi xamda kalsiy karbonatning magniyga nisbatan ko'pligi bilan xarakterlanadi. 60 sm dan pastki qatlamlarda gips bo'lakchalari mavjud bo'lib, 70-90 sm qatlamlarda esa 15 sm gacha bo'lgan sho'xli qatlamlar uchraydi. Bu tuproqlar gumus miqdorining o'rtachaligi, yalpi kaliyning kamligi, yalpi fosforning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Kuchsiz minerallashtiruvchi yer osti suvlari xlorga nisbatan sulfat ionlari ko'p bo'lib, uning satxi mavsumga qarab 1,5-2,0 metrgacha o'zgaradi.

Tajriba maydonlari shamolli xududda joylashganligi sababli bu yerda mazkur tuproqlar uchun o'ziga xos bo'lgan tuproq zarrachalarining zichlashishi va ko'chishi kuzatiladi. Bu kabi salbiy xolatlarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi.

Kuzatish dastlab erta bahorda papaya urug'laridan unib chiqqan nihollar ustida olib borildi. Erta bahordagi nihollarning uzunligi 3-10 sm oralig'ida. Kuzatishlar asosida quyidagi natijalar olindi:

15-aprel. Nihol uzunligi 6-sm. 2 ta bargchaga ega. Yirik bargining uzunligi 2 sm, barg bandi 1,7 sm, mayda bargi 1,3 sm, barg bandi 1,2 sm ni tashkil qiladi. Barglar qarama - qarshi joylashgan. Harorat 20<sup>0</sup> C.

30- aprel. Nihol uzunligi 13- sm. Tana diametri 2 sm. 3 ta bargchaga ega. Birinchi bargining uzunligi 6 sm, diametri 4 sm, barg bandi 4,2 sm, ikkinchi bargining uzunligi 4,3 sm, diametri 3 sm, barg bandi 3,1 sm. Uchinchi bargining uzunligi 2 sm. Barglar 2 tasi ketma-ket, 1 tasi qarama-qarshi joylashgan. Harorat 22<sup>0</sup> C.

15 may. Ko'chat uzunligi 25 - sm. Tana diametri 4 sm. 5 ta bargchaga ega. Birinchi bargining uzunligi 16 sm, diametri 10 sm, barg bandi 7 sm, ikkinchi bargining uzunligi 10 sm, diametri 7,2 sm, barg bandi 6,3 sm, uchinchi bargining uzunligi 6 sm, bandi 3,5 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Harorat 22<sup>0</sup> C.

30 may. Ko'chat uzunligi 39 sm. Tana diametri 4 sm. 8 ta bargchaga ega. Yirik bargining uzunligi 28 sm, diametri 16 sm, barg bandi 8 sm, mayda bargining uzunligi 3 sm, diametri 1,5 sm, barg bandi 1,2 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 4,7 sm. Harorat 25<sup>0</sup> C. Birinchi va ikkinchi hosil bo'lgan barglar o'z bandidan ajralib tushgan.

15- iyun. Ko'chat uzunligi 55 sm. Tana diametri 5,2 sm. 7 ta bargchaga ega. Yirik bargining uzunligi 26 sm, diametri 15 sm, barg bandi 7,4 sm, mayda bargining uzunligi 2,4 sm, diametri 1,1 sm, barg bandi 1 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 4,7 sm. Harorat 25<sup>0</sup> C.

30- iyun. Ko'chat uzunligi 70 sm. Tana diametri 6,4 sm. 8 ta bargchaga ega. Yirik bargining uzunligi 34 sm, diametri 18 sm, barg bandi 13,2 sm, mayda bargining uzunligi 2,7 sm, diametri 1,8 sm, barg bandi 1,1

sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 5,5 sm.Harorat 31 °C.

15 - iyul. Ko'chat uzunligi 85 sm. Tana diametri 6,8 sm. 9 ta bargchaga ega.Yirik bargining uzunligi 31,5 sm,diametri 20,5 sm,barg bandi 15 sm,mayda bargining uzunligi 2,4 sm,diametri 2 sm, barg bandi 1,0 sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 5,8 sm.Harorat 38 °C.

30 - iyul. Ko'chat uzunligi 94 sm. Tana diametri 7,8 sm. 7 ta bargchaga ega.Yirik bargining uzunligi 34 sm,diametri 25,5 sm,barg bandi 21 sm, mayda bargining uzunligi 3,2 sm,diametri 2,6 sm, barg bandi 2,1 sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 6 sm.Harorat 38 °C.

15 -avgust. Ko'chat uzunligi 110 sm. Tana diametri 8 sm. 9 ta bargchaga ega.Yirik bargining uzunligi 33 sm,diametri 24,5 sm,barg bandi 20 sm, mayda bargining uzunligi 3,2 sm,diametri 2,6 sm, barg bandi 2,1 sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 6,3 sm.Harorat 38 °C.

30-avgust. Ko'chat uzunligi 121 sm. Tana diametri 8,4 sm. 8 ta bargga ega.Yirik bargining uzunligi 35,5 sm,diametri 27 sm,barg bandi 25 sm, mayda bargining uzunligi 2,6 sm,diametri 1,7 sm, barg bandi 1,5 sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 7 sm.Harorat 35 °C.

15- sentabr. Ko'chat uzunligi 130 sm. Tana diametri 9 sm. 9 ta bargga ega.Yirik bargining uzunligi 31 sm,diametri 25 sm,barg bandi 23,5 sm, mayda bargining uzunligi 2,5 sm,diametri 1,5 sm, barg bandi 1 sm.Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 7,5 sm.Harorat 28 °C.

30- sentabr.Ko'chat uzunligi 139 sm. Tana diametri 9,5 sm. 7 ta bargga ega.Yirik bargining uzunligi 37 sm,diametri 29 sm,barg bandi 26,5 sm, mayda bargining uzunligi 1,9 sm,diametri 1,2 sm, barg bandi 0,9

sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 7,7 sm. Harorat 28 °C.

15- oktabr. Ko'chat uzunligi 146 sm. Tana diametri 9,8 sm. 7 ta bargga ega. Yirik bargning uzunligi 35 sm, diametri 24 sm, barg bandi 22 sm, mayda bargning uzunligi 2,5 sm, diametri 1,5 sm, barg bandi 1 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 8,4 sm. Harorat 25 °C.

30- oktabr. Ko'chat uzunligi 152 sm. Tana diametri 10 sm. 8 ta bargga ega. Yirik bargning uzunligi 33,5 sm, diametri 25,6 sm, barg bandi 24 sm, mayda bargning uzunligi 3 sm, diametri 2,3 sm, barg bandi 1,7 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 8,9 sm. Harorat 25 °C.

15- noyabr. Ko'chat uzunligi 155 sm. Tana diametri 10,2 sm. 7 ta bargga ega. Yirik bargning uzunligi 32,2 sm, diametri 23,6 sm, barg bandi 20 sm, mayda bargning uzunligi 2 sm, diametri 1,5 sm, barg bandi 1 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 9 sm. Harorat 20 °C.

30- noyabr. Ko'chat uzunligi 158 sm. Tana diametri 10,5 sm. 6 ta bargga ega. Yirik bargning uzunligi 30 sm, diametri 25 sm, barg bandi 18 sm, mayda bargning uzunligi 2,6 sm, diametri 1,5 sm, barg bandi 1,8 sm. Barglar ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Ketma- ket joylashgan barglar orasidagi masofa 9 sm. Harorat 15 °C.

15- dekabr. Ko'chat yerdan tuvakka olingandan keyin o'z rivojlanish faoliyatida sustlashish ro'y berdi. 3 kundan so'ng esa tanasidagi barcha barglarning to'kilib ketish holati kuzatildi. Harorat 10 °C.

30- dekabr. Ko'chat uzunligi 160 sm. Tana diametri 10,5 sm. 2 ta kichik bargchaga ega. Birinchi bargchanning uzunligi 3 sm, diametri 2,4 sm, barg bandi 2 sm. Ikkinchi bargchanning uzunligi 2,5 sm, diametri 1,5 sm, barg bandi 1,4 sm.

15- yanvar.Ikkala bargchani ham to'kilishi kuzatildi.Tanada barglar butunlay qolmadi va barcha barg bo'g'imlar soni 48 tani tashkil etdi.

Shu kabi kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bu o'simlikda o'ziga noqulay bo'lgan sharoitlarda o'sish va rivojlanish fazalaridagi jarayonlar ancha sustlashadi yoki butunlay to'xtaydi.

Keyingi rivojlanish kunlar isib harorat ko'tarilganda kuzatiladi ya'ni aprel oylaridan boshlab gulkurtaklar hosil bo'la boshlaydi.Gullash jarayoni may-avgust oylarigacha davom etadi.Mevalash esa sentabr-noyabr oylariga to'g'ri keladi.

**2012-2013-yillar**

OYLAR	OLINGAN MA'LUMOTLAR											
	O'simlikni ng balandligi (sm)	Poyasinin gdiametri (sm)	BARGLAR SONI	BARGNING RIVOJLANISH SIKLI			Gullar soni	Mevalar				Harorat °C
				<u>Barg</u> <u>plas.uz</u> <u>.(sm)</u>	<u>Barg</u> <u>plas.keng.(sm)</u> <u>l</u>	<u>Barg bandi</u> <u>uz.(sm)</u>		<u>Soni</u>	<u>Og'irligi</u> <u>(gr)</u>	<u>Uzunli</u> <u>gi</u> <u>(sm)</u>	<u>Diame</u> <u>tri</u> <u>(sm)</u>	
MART	3	1	1	1,3	1	1,2	-	-	-	-	-	18
APREL	13	2	3	8	5,8	5	-	-	-	-	-	22
MAY	39	4	7	15	12,6	10,4	-	-	-	-	-	28
IYUN	70	6,4	9	22,4	20	15,5	-	-	-	-	-	34
IYUL	94	7,8	8	30,2	28,5	20,5	1	-	-	-	-	42
AVGUST	121	8,4	10	38,9	35	25	5	-	-	-	-	38
SENTABR	139	9,5	10	43	40,5	27,8	7	-	-	-	-	28
OKTABR	167	10,5	8	47,2	45	33,4	-	1	125	7,5	8	18
NOYABR	178	10,9	9	-	-	-	-	4	134-565	6-14	13	14
DEKABR	180	11,8	7	-	-	-	-	4	120-620	9- 22	22,5	10
YANVAR	185	12	3	-	-	-	-	-	-	-	-	10
FEVRAL	185	12,7	—	-	-	-	-	-	-	-	-	10

Qirollik:Plantae  
Bo'linma:Magnoliophyta  
Sinf:Magnoliopsida  
Buyurtma:Violales  
Oila:Caricaceae  
Turkum:Carica L.  
Tur:Carica papayya

Papayya (qovun daraxti) Caricaceae oilasining capca naviga mansub.Madaniy shakli Janubiy Meksika va Gvatemali mintaqalarida yuzaga kelgan.U tropic mintaqalarning asosiy mevalaridan biri bo'lib, uni millionlab kishilar iste'mol qiladilar. G'arbiy Xindistonning ba'zi orollarida u pawpaw deb tanilgan. Birinchi bo'lib ispan olimi Ovedo tomonidan 1526 - yil Karib qirg'og'I,Panama va Kolumbiyada tavsiflangan.

Papayya shox-shabbasiz kichik daraxt,yagona poyaga ega.Barglari poyada spiral holda joylashgan. Mevasining ko'rinishi,tuzilishi, ta'mi, hatto kimyoviy tarkibi ham qovunga yaqin.Shuning uchun ham uni “qovun daraxti “ deyishadi. Ispaniyalik dengizchilar papayyaga ilk bor duch kelgan va bu haqida yozma tepasida soyabonsimon barglar,ostida esa ta'mi qovunni eslatuvchi mevalar osilib turibdi”(1 rasm ). Bundan tashqari uni “non daraxti” deb ham nomlashadi.Chunki olovda pishirganda undan non hidi keladi.O'simlikning zamonaviy nomi “ababai” so'zidan kelib chiqqan.Karib dengizi orollarida yashovchi aholi uni shunday nom bilan atashgan. Yevropaliklar bu o'simlik bilan ilk bor XV asrda Kolumb Amerikani kashf qilgandan so'ng tanishishgan.

Kubaliklar uning ichi vitaminlar,fermentlar va foydali minerallar bilan to'la bo'lganligi sababli “Fruta de Bamba” (Bomba- meva) deb atashadi. Kosta Rika va meksikaliklar uni har qanday kasalliklarga davo bo'lganligi sababli “Salomatlikni saqlovchi daraxt” (Деревом хорошего

здоровья) deb nomlaydilar. Floridaning tub joy aholisi papaya bargidan kir yuvishda ko'p foydalanganliklari uchun bu o'simlikni "negrityan sovuni" daraxti ham deyishadi.



1-rasm. Carica papaya mevalarining tashqi ko'rinishi.

XVI asrda Vasko da Gama papayyaga "Hindistonning oltin daraxti" deb nom bergan.

Papayya tanasi palmaga o'xshash, o'simlik poyasining yuqorisida 12-16 ta katta-katta parraksimon bargidan iborat to'pbarggul joylashgan. U juda tez o'sib, bir yilda 6 m. gacha yetishi mumkin. (2-rasm) Yashash muddati 20 va undan ortiq yil bo'lib, uni 3-4 yilgacha yetishtirish maqsadga muvofiqdir. Indoneziyada papayyaning ba'zi navlari uch oylik yoshidayoq gullaydi va meva tugadi, 5 yil yashab hayot faoliyatini tugatadi.



2-rasm.Papayyaning tashqi ko'rinishi

Yosh o'simliklar tanasining o'zagi yumshoq to'qimalar bilan to'la bo'lib, keyinchalik g'ovakka aylanadi.(3-rasm) Tanasining po'sti juda mustahkam bo'lgan tolalardan iborat bo'lib, ulardan arqon to'qishda ham ishlatiladi.



3-rasm.Papayya nihollari

Papayya mevasi tarkibida o'simlik fermenti- papain bo'lib, u fiziologik xususiyatiga ko'ra oshqozon shirasiga o'xshash. Shuning uchun oshqozon kislotasi ortiqchiligidan neytrallash xususiyatiga ega. Uning yana bir xususiyati, oqsillarni tez parchalashidir. Shu boisdan ham u oqsil yetishmovchiligidan qiynalayotgan kishilarga juda foydali. Hatto qattiq mol go'shtini papaya bargiga o'rab qo'yilsa, bir necha soatda u yumshoq bo'lib qoladi. Mevalari tuxumsimon uzunchoq yoki silindr shaklida, yirik, etli, suvli. Umuman olganda mevasining uzunligi 15-50 sm, qalinligi 10-20 sm, og'irligi 2-3 kg.gacha yetadi. Yarim yovvoyi turlari mevalarining uzunligi 2,5 -15 sm. Po'sti yupqa, ammo qattiq. Rangi yashil bo'lib, oq shiraga boy bo'ladi. Pishganda sariq tillarang tusga aylanadi. Mevasida 1000 dan ortiq mayda qora urug'lari bor. Urug'lari tuxumsimon, burishgan. (4-rasm) Urug'lari tarkibida uglevodlar, carpasemine, benzyl senevol, glyukozidlar bor.



4-rasm Carica papaya mevasi va urug'lari

Mevasining tarkibida oqsillar-0.6 gr, yog'lar -0.1 gr, uglevodlar -11 gr, kislotalar 1,4-1,6 gr; kalsiy - 20 mg, fosfor - 16 mg, temir -0,3 mg, kaliy 234 mg; vitaminlardan esa A, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, C kabilar uchraydi. Bundan tashqari tarkibida glyukoza, fruktoza, organik kislotalar, klechatka, beta karotin lar ham bor. 100 gr papayyaning energetic quvvati 26 - 74 kaloriya.

Mevasining oziqlik kaloriyasi past bo'lganligi sababli ovqat hazm qilishda dietik mahsulot sifatida iste'mol qilish foydali.

Gullari o'ziga xos, nafis bo'lib, sarg'ish va sariq-zarg'aldoq ranglarda bo'ladi. Gullari 2 jinsli bo'lib, jinsiy organlari rivojlangunga qadar bir-biriga o'xshash bo'ladi. (5-rasm) Changchili gullari ko'p shoxlangan ro'vak. (6-rasm) Urug'chili gullari barg qo'ltigida o'troq joylashgan. Bundan tashqari bir



uyli gullari xam bor. 1 ta papaya ko'chatida 15-20 tagacha gullar bo'ladi.

5-rasm. Papayya gullari



6-rasm. Ro'vak to'pgul.

Gullarini 6 ta tipi ma'lum.

Urug'chi gul:

a) juda yirik gul, 5 ta gultojibarglari erkin joylashgan. Bundan hosil bo'lgan mevalar sharsimon yoki tuxumsimon shaklda bo'ladi. Tugunchasi yirik.

b) bu tip ham yuqoridagiga o'xshash, faqat 5 ta kalta changchisi bor. Mevalari sharsimondan ovalsimon shaklgacha bo'ladi.

c) germofrodit, gultojibarglarining  $\frac{2}{3}$  qismi qo'shilgan yoki erkin. Urug'chisi 2-10 tagacha: mevalarlari 5 tadan 10 tagacha. Bunday gullar havo harorati kunduzi 24,5 C va kechasi 15,5 C bo'lganda hosil bo'ladi.

d) gultojibarglarining  $\frac{1}{4}$  qismi qo'shilgan, 10 ta urug'chiga ega, 5 ta uzun va 5 ta kalta. Mevalarining shakli silindrsimondan noksimongacha.

e) germofrodit meva bermaydigan guli. Bunda tuguncha yo'q bo'ladi.

f) changchili gul, changchilari 2 qatorda 5 tadan bo'lib joylashgan. Birinchi qatori ikkinchisiga nisbatan uzun.

Barglari ham nihoyatda o'ziga xos tipda tuzilgan. Yirik, uzun bandli va barglarining cheti 5-7 taga bo'lingan. Uzunligi 5-30-60 sm, diametri 10-30 sm atrofida bo'ladi. Barglarining yashash muddati 4-6 oy.

Carica papaya 3 ta birlamchi tipga klassifikatsiyalanadi.

1. Staminate

2. Hermaphroditie

3. Pistillate

Papayyaning tibbiyotda foydalaniladigan asosiy qismlari barglari, mevalari, ildizi.

Ildizlari va barglari-siydik haydovchi vosita. Barglari va urug'lari-qurt tushiruvchi, barglari astma va revmatizmni davolashda eng muhim vosita.

Ishlatilishi:

\* Papayya tarkibida ko'plab biologic aktiv moddalar mavjud. 2 ta zarur modda - chymopapain va papain ovqat hazm bo'lishiga yordam beradi.

\* U oshqozon muammolari va ichak parazitlarini bartaraf etishda ham qo'llaniladi. Shuningdek, papain artritga ham davo.

\* Ildizidan tayyorlangan xantal bachadon shishini davolashda yordam beradi.

\* Papayya shirasi (lateks) psoriazni davolashda ishlatiladi. Shuningdek, dunyoning ko'p burchaklarida mahalliy antiseptik vosita hisoblanadi.

\* Parhezbop papaya odam siydigining kislotaliligini kamaytiradi.

Saqlanish:

- Lateks gastritni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi odamlarda uning changi, mevasi va shirasiga allergiya kuzatiladi.
- Yangi shirasi konyuktivitga sabab bo'lishi mumkin.

**Papayyaning tibbiyotda qo'llanishi;**

- **Travmatologiya va ortopediyada.** Umurtqa osteoxondrozi, umurtqa orasi disk churrasi, bo'g'inlar osteoporoz.
- **Xirurgiyada.** Yiringli yaralarda, kuygan ortiqcha to'qimalarning tushib ketishini tezlashtirish, yaraning tezroq bitishiga yordam berishi uchun.
- **Gnekologiyada** .Jinsiy a'zolarning shamollash va chandiq hosil bo'lish kasalliklarining oldini olishda va davolashda, hayz siklini normallashtirish va sikl davomida bo'ladigan holsizlik, ko'p uxlash, jahldorlik va tez charchash alomatlarining yengil o'tishiga yordam beradi.
- **Nevrologiyada.** Papayya energetik kuchli mahsulot bo'lib., u organism tanasini kuchaytiradi, quvvatini oshiradi, apatiya va charchashni yo'qotadi.
- **Oftalmologiyada.** Papayya kataraktada, ko'z pardalari va boshqa qismlariga qon quyilganida, ko'z tubida proliferativ o'zgarishlar,

sekin kechuvchi keratitlarda va shox pardasining xiralashishida yordam beruvchi moddalarga ega.

- **Stomatologiyada.** Papayya kariyes, pulpit, periodontit, gingivit, paradontit, stomatit kasalliklarida yordam beradi.
- **Terapiyada.** Papayya og'riqsizlantirish va isitmani tushirish xususiyatiga ega. Papain oqsillarni parchalab, ovqat hazm qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, umumiy ahvolni yaxshilaydi. Gastrit, oshqozon yarasi, kolit kasalliklarida bemor ahvolini yaxshilaydi, qabziyatga yordam beradi.
- **Diyetologiyada.** Sog'liqqa zarar yetkazmagan holda ortiqcha vazndan halos bo'lishga yordam beradi. Diyetologlar mol go'shtidan tayyorlanadigan ovqatga bir necha papayya bo'lakchalarini solib yuborishni tavsiya qiladilar, shunda eng katta qattiq go'sht ham yumshoq, xushxo'r bo'ladi.
- **Dermatologiyada.** Ekzema, qadoq, so'gal, yaralarni, sepsillarni davolashda, yuz terisini yumshatishda ishlatiladi. Papayya mevasida ko'p miqdorda vitamin A bo'lib, teridagi o'lgan to'qimalarning tushib ketishini tezlashtirib, terini tekislaydi, silliqlashtiradi va ajinlarning paydo bo'lishidan saqlaydi. Meva tarkibidagi organik kislotalar terining ko'chishi, sochlarning bo'linishi va to'kilishining oldini oladi.  
**Gematologiyada.** Papayya tarkibida temir moddasi ko'p bo'lganligi tufayli kamqonlikning oldini oladi.
- **Gelmintologiyada.** Papayya mevasi gijja dori sifatida ham qo'llaniladi.
- **Onkologiyada.** Papayya mevasida, bargida va urug'idan topilgan modda saraton hujayralarini yo'q qilish xususiyatiga ega.

Papayyaning hozirgi kundagi natijalari shuni ko'rsatadiki, uning 500 mg dozasi ichkilikbozlik tufayli orttirib olingan yurak-qon tomir kasalliklarini davolash qobiliyatiga ega ekan.

«Jamiyat» ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2012- yil 8- iyun sonida «Qovun daraxti» bu mo'jizakor o'simlik yurtimizda ham yetishtirilmoqda» sarlavhasi bilan e'lon qilingan maqolani o'qib ko'ngilga ajib yorug'lik to'ladi. Zotan, tinib-tinchimas mirishkor va tadbirkorlarimiz soha olimlari bilan bamaslahat dunyo miqyosida foydali va ming dardga davo deya baholanadigan dorivor o'simlik, ya'ni papayyani madaniylashtirishga muyassar bo'lgani ushbu o'simlikning import darajasini pasaytirish bilan birga undan tibbiyotda yanada keng foydalanish imkonini bermoqda.

Maqolada muallif ta'kidlaganidek, hozirgi kunda «Qovun daraxti» nomi bilan yurtimizda ma'lum va mashhur bo'lib borayotgan ushbu o'simlikning inson salomatligi uchun juda foydali va betakror xususiyatlari bor. Aytish o'rinliki, Janubiy Amerika va Afrika mamlakatlari mahalliy aholisi papayyaning shifobaxshligi haqida juda qadimdan bilishgan va undan turli kasalliklarni davolashda samarali foydalanib kelishgan. XIX asrning oxirlariga kelib uning bu xususiyatlari zamonaviy tibbiyotning yutuqlari orqali kashf etila boshlandi. Jumladan, Vurts-Boshut va Pikxolt singari olimlar papayya daraxti mevasidan ferment ajratib olishdi. 1937 yilda esa Bolz boshchiligidagi bir guruh olimlar bu o'simlikning nafaqat mevasi, balki uning barglari va tanasi ham dorivor ekanligini aniqlab, birinchi marta kristallashgan papayyani kashf etishdi. Oradan to'rt yil o'tib Bolz Yansin bilan hamkorlikda uning yana bir xususiyatini, ya'ni kristallashgan ximopapainni ixtiro qildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham «Qovun daraxti»ni mahalliy iqlimga moslashtirgan holda ekib yetishtirilayotgani insonlar salomatligini asrashda, shuningdek, turli kasalliklarning oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Shahrisabz tumanidagi «Elmurod o'g'li Elbek» fermer

xo'jaligida yetishtirilayotgan va «Papain» nomi bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'plab yurtdoshlarimizni dardidan forig' qilib, turli kasalliklarni davolashda juda qo'l kelmoqda.

Shahrisabz tumanidagi Xo'jaxurson qishlog'ida istiqomat qiluvchi Anvar Bekmatovni ancha vaqtlar buyrak toshi kasalligi bezovta qilib kelgan ekan. Biroz e'tiborsizlik natijasida bu kasallik vaqt o'tishi bilan o'tkir ko'rinish olgan va kuchli og'riq qo'zg'agan. Bemor ana shundan keyin vrachlarga murojaat etganda ular tashxis natijalariga qarab jarrohlik amaliyotini qo'llash lozimligini, lekin chap buyragi ham yallig'langanligi sababli bu operatsiya ko'ngildagidek ijobiy samara bermasligini aytishadi.

Tushkunlikka tushgan bemorni xalq tabobati usuli, ya'ni dorivor giyohlar va papain bilan davolashni boshlaganda dastlabki muolajalarda ijobiy natijalar ko'zga tashlana boshladi. Muolajalar so'nggida esa ajoyib natijaga erishildi va bemor butunlay sog'ayib ketdi. Bu jarayonda papainning yiringlashni juda tez orada barham berib, yallig'lanishni o'z vaqtida bartaraf etgani juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bekobodlik Shahnoza Sharipova birinchi tug'ruqdan so'ng tanada yuz bergan garmonal o'zgarishlar tufayli xastalikka chalinganda ham papain tavsiya qilindi va bemorning to'la salomatligini tiklashga erishildi.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

### **Papain dori vositasimi?**

Mulohazalarni o'qib, ba'zi insonlarda ana shu savol tug'ilishi mumkin. Bu savollarga xalq tabobatining vakillari shuni aytishi mumkinki, papain dori vositasi emas, u tabiiy biologik ta'sirga ega bo'lgan foydali o'simlikdir. U to'qimalardagi hujayralarning hayotini yaxshilab, tiklab boradi. Tanamizdagi har

qanday kasallikda asosan hujayralar zararlanishini nazarda tutadigan bo'lsak, uning shifobaxshligi yanada oydinlashadi.

Pishmagan papayaning shirasi tarkibida papain deb ataluvchi murakkab proteolitik oqsil mavjud. U oqsil bo'lsa ham yuqori harorat ta'sirida parchalanmaydi. Papain yiringni parchalash shishlar, churralar va ayrim bezlarni bo'shashtirib, so'rilish xususiyatiga ega. Uning bunday keng qamrovli ta'sirga egaligi tarkibida tabiiy fermentlarning ko'pligidadir. Papain molekulasi bitta poliptik zanjirdan iborat bo'lib, 212 xil aminokislotalar qoldig'idan iborat. U 6-8 M moxavina eritmasida va 70 foizlik spirtida o'z xususiyatini deyarli yo'qotmaydi. Lekin namlikka va ochiq havoga chidamsizligi uni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan asrashni taqozo etadi.

Papaindan tibbiyotda tromboz, gastrit, oshqozon ichak kasalliklarini davolashda, qon anti koagulyatori sifatida, ekzemada, gijja haydovchi vosita sifatida, bundan tashqari kuygan yaralarni davolashda, kosmetologiyada sepkil va ortiqcha tuklarni yo'qotish uchun foydalaniladi. Qon bosimini tushiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Lekin yuqori dozalari tomirlar torayishiga olib keladi. Shuningdek uning tarkibida proteaz va pepsin kabi fermentlar bor. Tarkibidagi bu moddalar tufayli umurtqa pog'onasidagi churralarni davolashda eng asosiy vositadir. U yana ortiqcha vazni yo'qotib qomatni chiroyli qiladi.

Bundan tashqari, papain pivo ishlab chiqarish sanoatida, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida, saqich ishlab chiqarishda ham muhim ahamiyatga ega.

Papayyaning yashil mevasi, bargi, poyasida lateks degan sutsimon shira bo'lib, uning tarkibida proteolitik fermentlar, olma kislotasi, qatron bor. Bu sutsimon shira juda zaharli bo'lib, rangini yo'qotgandagina uning

zararli xususiyati qolmaydi. Aynan shu sutsimon shiradan chilla yarani davolashda ishlatiladi.

Buyuk Britaniyaning olimlari “Gurman” ilmiy jurnalida qayd etishicha, papaya mevasi, urug’i va bargida mavjud bo’lgan moddalar hatto ximiyaterapiya ta’sir qilmagan saraton to’qimalarini yo’q qilish xususiyatiga ham ega ekan. Ularning fikricha, uni sof meva holda ham, quritib maydalangan holda iste’mol qilinsa ham ta’sir kuchi birdek samara beradi. Uni sog’lom odamlar muntazam iste’mol qilib borsalar turli kasalliklarga duchor bo’lmaydilar.

Afrikaning Zambiya davlatida neyroxaroh bo’lib ishlagan Mahmud To’ychiyevich Zoidovning bergan ma’lumotiga ko’ra, papayyazorlar ko’p bo’lgan mamlakatlarda osteoxondroz, disk churralari bilan kasallanish yuz bermaydi. Tarkibida turli tabiiy mikroelementlar va fermentlarga boy bo’lgan papaya mevasini muntazam tanovul qilgan kishilarda ovqat tez hazm bo’ladi, ichki a’zo va to’qimalarda, ayniqsa, umurtqa hamda bosh suyak bo’ginlarida tuz yig’ilmaydi.

Papayya mevasida vitamin C, A, kaliy va magniylarni ko’p bo’lganligi sababli indeyslar turli teri kasalliklarini, jarohatlarni davolashda, tanadagi turli parazit gijjalardan tozalanishda foydalanishadi. AQSHda bu mevadan herpesni davolashda qo’llaniladigan hab dorilar ishlab chiqariladi.

Florida universitetining meditsina fanlari doktori Nam Dan papayyani quritilgan bargidan tayyorlangan ekstraktidan saraton kasalligini davolashda foydalanish mumkinligini tajribalar asosida isbotlab berdi. Papayya bargi tarkibidagi sitokininlar o’smalarga va infeksiyalarga qarshi xususiyatga ega bo’lgan oqsil moddalari hosil bo’lishini quvvatlaydi. Uning Ethnofarmacology jurnalidagi maqolasida papaya barglari ayollar bachadonidagi, ko’krak bezlaridagi, jigarda va oshqozon osti bezidagi o’smalarga qarshi kurashda samarali yordam beradi, hamda papayyani saraton kasalligiga qarshi eng kuchli vosita deb ta’riflaydi. Hindistonlik

olimlar ham papaya daraxti po'stlog'I o'sma hujayralarni to'xtatish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatishgan.

Papayyani o'stiriladigan muhitiga, tuproq va iqlim sharoitiga bog'liq holda turli hayotiy formalari, minglab navlari mavjud. Biroq papaya qaysi mamlakatda qaysi navi yetishtirilishidan qat'iy nazar, uning bargi va mevasi nihoyatda shifobaxshligi bilan jahon ommasini e'tiborini tortgan.

**Jahon bo'yicha yiliga papaya yetishtirish miqdori.**

<b>Yil</b>	<b>Tonna (ming)</b>
<a href="#"><u>1965</u></a>	1 547
<a href="#"><u>1970</u></a>	1 693
<a href="#"><u>1975</u></a>	1 935
<a href="#"><u>1980</u></a>	2 460
<a href="#"><u>1985</u></a>	3 158
<a href="#"><u>1990</u></a>	3 255
<a href="#"><u>1995</u></a>	5 478
<a href="#"><u>2000</u></a>	7 009
<a href="#"><u>2005</u></a>	8 139
<a href="#"><u>2006</u></a>	8 965
<a href="#"><u>2007</u></a>	9 474
<a href="#"><u>2008</u></a>	9 993
<a href="#"><u>2009</u></a>	10 486

**20 ta mamlakatdagi papaya yetishtirish  
miqdori ( 2009 )**

<b>Mamlakat</b>	<b>Papayya (ming t )</b>
 Hindiston	3 911
 Braziliya	1 792
 Indoneziya	766
 Nigeriya	763
 Meksika	707
 Efiopiya	260
 Kongo demokratik respublikasi	220
 Tayland	206
 Gvatemala	196
 Kolumbiya	189
 Flippin	176
 Peru	174
 Venesuela	130
 Bangladesh	129
 Xitoy	123
 Kuba	95
 Keniya	84
 Malayziya	72
 Salvador	71
 Kosta - Rika	61

**4.3.** Papayya urug'i va qalamchasidan ko'payadi. Urug'i martning boshlarida yengil o'g'itlangan tuproqqa ekiladi. (chimli, bargli tuproq, torf, qum teng miqdorda olinadi) va yaxshilab namlanadi. 7-10 kundan so'ng yangi o'g'itlar qiyg'os unib chiqadi. Urug'dan ko'kartirilgan ko'chat tez o'sadi. Birinchi yili ularni 2-3 marta har safar idishning kattarog'iga ekish kerak.

1-2 yillik o'simlikning qalinligi 1,5 sm keladigan poyasidan ham papayyani yetishtirsa bo'ladi. Poya 8-10 sm uzunlikda kesib olinadi va iliq joyda 2-3 kun quritiladi. So'ng yirik qum bilan to'ldirilgan qutilarga ekiladi.

Qovun daraxti yorug'likka o'ch. Shu bois oktyabr - mart oylarida o'simlik ekilgan xonaga lyuminessensiyaga oid chiroqlar o'rnatish lozim. Chiroq bilan o'simlik orasidagi masofa 30 sm dan kam bo'lmasligi shart.

Papayya tropic o'simlik bo'lganligi uchun ham havo haroratining keskin o'zgarishini ko'tarolmaydi: yozda 24-26 °C, qishda 18-20 °C bo'lgani ma'qul. Mevasi esa 5-10 °C haroratda bir necha haftagacha ham saqlanishi mumkin. So'ng yuqori haroratda pishishini kutishadi.

Agar papaya bananlar bilan birga saqlansa, juda tez pishib yetiladi. Uy sharoitida esa ularni 2-3 kungacha saqlash mumkin.

## **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, shifobaxsh ne'matlar va ularning inson salomatligiga ta'siri bilan tanishar ekanmiz, hamisha tibbiyot ilmi mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning quyidagi o'gitlarini yodga olish lozim: "Shifoni eng avval o'zingiz yashayotgan joydagi ovqatlardan, tabiiy ne'matlardan topasiz. Yashayotgan yeringizda o'sgan giyohlar eng birinchi davodir". Bizning tabiiy iqlim sharoitimizda o'stirilayotgan papayyalarning shifobaxshlik xususiyatlari yanada

ko'proq bo'lsa ajab emas. SHunday ekan, nafaqat papaya balki, barcha shifobaxsh o'simliklarni asrab avaylash, ularni ko'paytirish va introduksiya qilish yo'llarini ishlab chiqish barchamizning burchimizdir. Bu bilan biz yurtimiz shifobaxsh o'simliklari dunyosini florasini yanada yangi- yangi turlar bilan boyishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Yuqoridagi fikrlar asosida shunday qat'iy xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonning har bir viloyatida, jumladan Farg'ona iqlim sharoitida carica papayani ekib o'stirish, yopiq plantatsiyalarini tashkil etish, uning tur sonlarini ko'paytirish, xususan, uning organlaridan turli mahsulotlar tayyorlash texnologiyalarini joriy etish mumkin va bu albatta talabga to'la javob beradi.

#### **BMI natijalari asosida tavsiyalar.**

“Mehrigiyo” firmasida papayyani oddiy shamollashdan tortib, to saraton kasalligi, boshqa har qanday kasalliklarga davo bo'lishini hisobga olib, papaya choylari, papaya yog'i va papaya asalini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan.

**Papayya choylari** - oddiy ko'k va qora choylarga biologic faol moddalar, qo'shimcha sifatida papaya bargi va mevasidan qo'shilgan, 100 % toza ipak matodan tayyorlangan xaltachalarda chiqariladi. (Ipak yurakni xursand qiladigan doridir. Me'daning ovqatni o'zlashtirishdagi ishini kuchaytiradi. Bunda uning miqdori ahamiyatga ega emas... Abu Ali ibn Sino) Ushbu choyga qo'shimcha oq qayin kurtagi va barglari, qulupnoy mevasi va zaytun daraxti barglaridan qo'shilishi papaya choyining shifobaxshlik xususiyatini yanada oshiradi. Papayya choyi - umurtqa osteoxondrozida, umurtqa orasi disk churrasida, jigar va oshqozon faoliyatini yaxshilashda, ko'z quvvatini oshirishda juda samarali. Immun sistemasini mustahkamlaydi -

immunitetni oshiradi.Uzoq vaqt iste'mol qilganlarda umurtqa va bosh suyak bo'g'inlarida tuz yig'ilmaydi.

**Papayya yog'I** - amarant, atirgul yog'lari va asalari ona suti bilan boyitilgan bo'lib, turli kasalliklarni (prostatit, prostate adenomasi, quvvatsizlik, ayollar kasalliklari) hosil bo'lishini oldini olishda nihoyatda foydali. Immun sistemani mustahkamlaydi, jigar va oshqozon faoliyatini yaxshilaydi, umurtqa pog'onasi disk churralarini bartaraf etadi.

Amarant noyob o'simlik hisoblanib,uning tarkibida noyob skvalen moddasi bor.Skvalen akula yo'g'idan olinadi. Shuning uchun noyob hisoblanadi.Nobel mukofotining sovrindori professor Kolour tomonidan aniqlangan.Skvalenda 12 ta vodorod atomlari yetishmaydi.Odam organizmida skvalen suv vodorodi bilan bog'lanib, kislorod ajralib chiqadi.

“Barcha kasalliklarning sababi - kislorodning yetishmovchiligidadir. (Doktor Naguchi. Yaponiya.)

Shuningdek,amarant yog'ida inson organizmi uchun eng zarur aminokislota bor.Bu lizindir.

Asalari ona suti ham foydali moddalar (oqsillar, aminokislotalar, mineral tuzlar, miroelementlar, vitaminlar A,D,C,B1,B2,B3,B6,B12,B15,PP,H,E, lipidar,yog' kislotalari,gormonlar )ga juda boy.Qon hosil bo'lishini,xotirani,kuch-quvvatni oshiradi.Organizm qarishini oldini oladi.

Atirgul yog'I esa o't yo'llarida tosh hosil bo'lishini,turli shishlarni oldini oladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha shifobaxsh xususiyatlar papaya yog'ida o'z aksini topgan.

**Papayya asali** - “Mehrigiyo”da 50 xildan ortiq shifobaxsh dorivor giyohlar (sumbul,arslonquyruq, moychechak,limono't,zaytun, qoraqiz....) o'sadigan bog'laridan yig'ilgan asalga papayyaning pishgan urug'I, bargi ekstrakti va quritilgan mevasi hamda asalari ona suti va atirgul yog'lari qo'shilib tayyorlangan.Qon hosil bo'lishini

yaxshilaydi, oshqozon , jigar va buyraklar uchun foydali. Organizmning qarishini oldini oladi, xotirani yaxshilaydi, kuch va quvvatni oshiradi. O't yo'llarida tosh hosil bo'lishini oldini oladi. Turli shishlarni ( bosh miya, ko;krak bezlari, oshqozon, adenoma, mioma grijalar ) shimilib ketishida va hosil bo'lishining oldini olishda foydali.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. –Тбилиси: Медицина, 1990. – 119 с.
2. Алексеев Е.Б., Губанов И.А., Тихомиров В.Н. Ботаническая номенклатура. – М.: МГУ, 1989. – 168 с.
3. Базилевская Н.А. Центры происхождения декоративных растений. – // Вопросы эволюции, биогеографии, генетики и селекции – М.: АН СССР, 1960 – С.25-28.
4. Базилевская Н.А. Теории и методы интродукции растений. - М.; Л.: МГУ, 1964.-С.15-34.
5. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси.-Тошкент: Ўқитувчи,1996. Б 188-196.
6. Бейдеман И. Н. Изучение фенологии растений. –М.: Л., Полевая геоботаника, 1960. том 2 - С.333-336.
7. Белосельская З.Г., Силвестров А.Д. Вредители и болезни цветочных и оранжерейных растений. - М.: Сельхозиз., 1953. – С.28-45.
8. Горницкая И.П. Интродукция тропических и субтропических растений, ее теоритические и практические аспекты. –Донецк: Донеччино, 1995.–304 с.
9. Горницкая И.П. Коллекционнѳе фонды тропических и субтропических растений Донецкого ботанического сада НАНУ и их интродукция в защищенный грунт // Интродукция рослин, 2004.-Вўп.1. -С.20-26.
10. Гутиев Г.Т., Мосияш А.С. Климат и морозостойкость субтропических растений. – М.: Гидрометеиздатель., 1977. – С.3- Домницкая И.Л. Интродукция геснериевых (*Gesneriaceae* Dum.) в Ботаническом саду Днепропетровского

- национального университета. // Бюл. Гос. Никитского Бот. сада. -Вып.82. –Ялта: 2001. – С.40-42
11. Зорин Ф.М., Боровиков В.М. Загайный С.А. Комнатная культура субтропических растений. – Краснодар: 1953. – 203 с.
  12. Кармышина Н.М. Опыт интродукции тропических и субтропических растений в Ботанический сад АН УзССР. – Автореф., канд. биол. наук, Ташкент: 1988. –21с.
  13. Кирпичников М.Э., Забинкова Н.Н. Русско-латинский словарь для ботаников.-Л.: Наука, 1977.-654 с.
  14. Карнеев И.Е. Культура тропических и субтропических оранжерейно-комнатных растений. –М.: Сельхозлит., 1957. – 554 с.
  15. Муравьёва Д.А., Гаммерман А.Ф. Тропические и субтропические лекарственные растения.–М.: Медицина, 1974. –231 с.
  16. Палов М.М. Энциклопедия лекарственных растений.- М.: Мир, 1998.-467 с.
  17. Петров В.В. В мире субтропических растений.– М.: Наука, 1971.-169 с.
  18. Разумовский С.М. Ботанико-географическое районирование Земли как предпосылка успешной интродукции растений // Интродукция тропических и субтропических растений.–М.: Наука,1980.-С.10-27.
  19. Русанов Ф.Н. Основные понятия об интродукции растений и ее некоторых методах. // Труд.ботан.сада АН УзССР.-1954, вўп. 4.–С.25-34.

20. Swati Patil, Supritha Shetty, Rama Bhide and Shridhar Narayanan..  
“Evaluation of platelet augmentation activity of Carica papaya leaf aqueous  
extract in rats” 1985 y.

---

21. Urszula Dudziak “*Papaya*” (1976)

22. A. Duke “ REFERENCED QUOTES ON PAPAYA” 1983.

23. AA Mahmood; UR Kuppusamy “ Carica papaya “(Department of  
Molecular Medicine, Faculty of Medicine, University of Malaya, 50603  
Kuala Lumpur, Malaysia.

24. A.Qorayev “Qovun daraxt haqida eshitganmisiz” ”Tashxis”gazetasi  
(25.11.2010y ;6-9 s)

25.M.Ro’ziyev “Papayya mo’jizasi”, ”Nishon” gazetasi

26.A.Sobirov “O’zbekistonda vatan topayotgan mevali daraxtlar”,  
“Fermer va tomorqachi “ gazetasi (07.02.2012 y )

27.R.Abdullayev “Papayya - tabiat tuhfası” ,”Tabiat tuhfası” gazetasi.

28. Bahodir Ziyodqo’ziyev, “Obbo, tinib -tinchimaganlarey” ,”Nishon”  
gazetasi. (25.08.2011 y)

29.”Вестник ЦМО МГУ естественные и точные науки.” 2006-г.

## **Internet saytlari.**

**1. w.w.w. google.uz**

**2. w.w.w ya.ru**

**3. w.w.w.papaya.uz**

**4. w.w.w. mehriqiyo.uz**

**5. w.w.w ziyonet.uz**

**6. w.w.w. edu.uz**

**7. w.w.w.plant.ru**

## **Ilovalar.**

### **INTRODUCTION**

